

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2025, № 6 (12)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2025

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Иляс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхужаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобоқулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари номзоди, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
тарих фанлари доктори (DSc)
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби

Сиддиков Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Баҳранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиязарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳаммадовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Америка технологиялар университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1	Abduraxmonova Kamolaxon Ravshanjon qizi TIBBIYOT ANTROPOLOGIYASI DOIRASIDA BEMORLARNING KASALLIKLAR JARAYONIGA BO‘LGAN QARASHLARINI TAHLIL QILISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	5
2	Artikov Ulug‘bek Latifjon o‘g‘li BO‘Z RANGLI SOPOL IDISHLARNING KELIB CHIQISHI VA RIVOJLANISHI	12
3	Askarov Ollabergan Ikrom o‘g‘li FARG‘ONA VODIYSI SO‘NGI BRONZA-ILK TEMIR DAVRI TARIXI PALEOBOTANIK MATERIALLARDA AKS ETISHI	24
4	Бахранов Шерзад Таштурсунович СОВЕТ ХУКУМАТИ ТОМОНИДАН ЎЗБЕКИСТОН ССР ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ СОҲАСИДАГИ ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТ ВАЗИФАЛАРИНИ ҲАЛ ҚИЛИШ MASALASI ТЎҒРИСИДА	36
5	Mo‘ydinov Doniyorjon Avazbek o‘g‘li AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI DARYO KECHUVLARI TARIXSHUNOSLIGIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR	55
6	Normurodov Dilmurod Raxmatullyevich KITOB TUMANIDAGI SANGANAK (MAKRID) SOY HAVZASIDA OLIB BORILGAN YANGI ARXEOLOGIK QIDIRUV ISHLARI NATIJALARIDAN	60
7	Norova Dildora Radjabovna BOSH KIYIMLARI VA ULARDAGI ZARDO‘ZLIK SAN’ATINING O‘ZIGA XOSLIGI	76
8	Nosirova Dlrabxon Ikromjon qizi KORONAVIRUS PANDEMIYASI VA UNING TA’SIRIDA OVQATLANISH MUASSASALARI FAOLIYATIDAGI O‘ZGARISHLAR	84
9	Облобердиев Жасурбек Косим угли КОНТАКТНАЯ И ЭНДОГЕННАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ ТРАДИЦИОННОГО ГОСУДАРСТВА: БУХАРА ПРИ МУЗАФФАРЕ И АБДУЛАХАДЕ	90
10	Priniyazov Jetkerbay Adilbayevich QIZIL ANGOBLI SOPOL IDISHLARNING QO‘QON SHAHRINING YOSHINI ANIQLASHDAGI O‘RNI	100
11	Qulboyev Nishonboy Sobur o‘g‘li SANGZOR HAVZASINING TOG‘-OLDI HUDUDLARIDA ANIQLANGAN YANGI YODGORLIKLARNING LANDSHAFT-XO‘JALIK TIZIMI	110
12	Муминов Алишер Гаффарович., Эрназаров Шермухаммад Эшбекович ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ТАРИХ ФАКУЛЬТЕТИ ДЕКАНЛАРИ ФАОЛИЯТИГА ЧИЗГИЛАР	120

13	Рахимова Ирода Халимовна МЕЖДУНАРОДНАЯ ОБСТАНОВКА И ЕВРОПЕЙСКИЕ МИССИИ В ОСМАНСКОЙ ИМПЕРИИ: ГЕРМАНИЯ И ВЕЛИКОБРИТАНИЯ (XIX В.)	134
14	Саидова Шахноза Шахназаровна УЧАСТИЕ НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ НЕКОММЕРЧЕСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ В РЕАЛИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОГРАММ УЗБЕКИСТАНА	143
15	Tuxtabekov Kozimbek Azimbekovich “ULUS” ATAMASINING KELIB CHIQISHI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI	160
16	Унгарова Ойдин Кобулжон кизи ИСТОРИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ С 1991 ПО 2023 ГОДЫ: ПРОБЛЕМЫ И ДОСТИЖЕНИЯ	168
17	Xakimova Shoira Sag‘dullayevna O‘ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI MANBALAR DOIRASIDA SHAMOL ENERGIYASIDAN FOYDALANISH TARIXI	176
18	Ҳамраев Суннатилло Аллабердиевич БУХОРО АМИРЛИГИГА РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ТОМОНИДАН ЮБОРИЛГАН А.Ф. НЕГРИ МИССИЯСИ ТАРИХШУНОСЛИГИ	184
19	Xolliyev Azizbek Go‘zalovich XIX ASRDA JAHON TEMIR YO‘L QURILISHI: ASOSIY YO‘NALISHLAR VA TENDENSIYALAR	195
20	Xolikulov Axmadjon Boymaxammatovich BUXORO AMILIGINING QO‘QON XONLIGI BILAN MUNOSABATLARI	208
21	Xomitov Ravshan Xomitovich MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA MILLIY OZCHILIK HUQUQLARINING TA‘MINLANISHI MASALASIGA OID	221
22	Шакиров Ильяс Рахимзянович КУЛЬТУРНО-ГУМАНТАРНЫЕ СВЯЗИ УЗБЕКИСТАНА И ФИЛИППИН: ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАП	229
23	Эргашев Хусан Юсуп ўғли ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ТАРИХ ФАКУЛЬТЕТИНИНГ ХАЛҚАРО ИЛМИЙ ЛОЙИҲАЛАРДАГИ ИШТИРОКИ (TACIS-TEMPUS МИСОЛИДА)	237
24	Eshkuvatov Bobir Valikul o'g'li GLOBALLASHUV TENDENSIYALARI VA UNING DINIY-MAFKURAVIY HAYOTDA NAMOYON BO‘LISHI	242

Artikov U. L.

«Ipak yo‘li arxeologiyasi» bo‘limi katta ilmiy xodimi

Milliy arxeologiya markazi

mirimonartikov@gmail.com

BO‘Z RANGLI SOPOL IDISHLARNING KELIB CHIQISHI VA RIVOJLANISHI

ANNOTATSIYA

Maqolada bo‘zrang sopol buyumlarning kelib chiqishi, texnologik xususiyatlari va tarixiy rivojlanish bosqichlari arxeologik hamda fizik-kimyoviy tahlillar asosida yoritiladi. Tadqiqot Eron, Turkmaniston, Farg‘ona vodiysi, Xorazm va boshqa hududlarida topilgan kulrang sopollarni solishtirma tahlil qiladi. Loy tarkibidagi temir oksidlarining reduksiya sharoitida pishirilishi natijasida hosil bo‘ladigan kulrang paydo bo‘lish mexanizmi ochib beriladi. Bo‘zrang sopollar qadimiy hunarmandchilik an‘analarida metall idishlarga taqlid asosida shakllangan, yuqori texnologik mahsulot sifatida talqin qilinadi. Maqolada ushbu sopol buyumlarning neolit davridan o‘rta asrlargacha bo‘lgan bosqichma-bosqich rivoji, ularning mintaqaviy tarqalishi va madaniy aloqalardagi o‘rni ilmiy asosda tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Bo‘zrang sopol, pishirish texnologiyasi, reduksiya muhiti, mineralogik tarkib, kulolchilik an‘anasi, Markaziy Osiyo arxeologiyasi, Chust madaniyati, Baqtriya, Farg‘ona vodiysi, Afrosiyob, Xorazm kulolligi.

KIRISH

Kulolchilik materiallarining ishlab chiqarish texnologiyalari va kelib chiqishini o‘rganishga bag‘ishlangan xorij tadqiqotlarida qoramtir tanali sopollar xom ashyosida silikatli (kremniy) qo‘shimchalar kulrang, qora, jigarrang idishlarni tayyorlashda, karbonatli (kalsitli) qo‘shimchalar esa oq yoki och tusli kulolchilikda loyga qo‘shiladigan tabiiy minerallar yoki materiallar bo‘lib, ular buyumning fizik va kimyoviy xossalarini yaxshilashda muhimligini aniqlashgan.

Xorijda dastlab bu turdagi sopol buyumlar kelt istilolari bilan bog‘lanib, “gallica keramikasi” nomi ostida ilmiy muomalaga kiritilgan. Keyinchalik tadqiqotchilar ushbu sopollarni lotin tilidagi “cinerognola” atamasi bilan atay boshlaganlar [37, 7]. Mazkur atama, asosan, Italiya hududlarida aniqlangan kulrang sopollarni ifodalashda qo‘llanilgan. Texnologik tahlillar natijasida ma‘lum bo‘lishicha, bunday sopol buyumlar 700–950 °C haroratda reduksiya muhiti (kislorod yetishmovchiligi)da pishirilgan. Bunday muhitda temir oksidining Fe^{3+} (qizil) shakli Fe^{2+} (kulrang–qora) shakliga aylanadi va natijada buyumlarga xos kulrang tus hosil bo‘ladi. Bu jarayon yuqori darajadagi texnologik nazoratni talab qilgan bo‘lib, ishlab chiqarish jarayonining mukammal tashkil etilganligini ko‘rsatadi. Pishirish amaliyoti odatda an‘anaviy ochiq o‘choqlarda yoki ibtidoiy yopiq tandirlarda amalga oshirilgan. Haroratning bir tekis taqsimlanishi va yoqilg‘ining (ko‘mir yoki yog‘och) nazorat ostida bo‘lishi texnologik jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblangan. Bunday ishlab chiqarish tizimi yuqori darajadagi tajriba, nazorat va kulolning amaliy mahoratini talab qilgan.

Shuningdek, ayrim topilma namunalarning boshqa shaharlar va ustaxonalar mahsulotlariga o'xshashligi o'sha davrda turli ishlab chiqarish markazlari o'rtasida savdo-iqtisodiy hamkorlik mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Arxeologik va texnologik tahlillar natijalari kulrang sopol buyumlarning noyob rang xususiyati, yuqori darajadagi pishirish texnologiyasi hamda estetik ko'rinishi ularni keng iste'mol bozorida talab yuqori mahsulotga aylantirganini tasdiqlaydi. Ishlab chiqarish jarayonida asosan mahalliy xomashyo va resurslardan foydalanilgan bo'lib, bu esa nafaqat ekologik barqarorlikni, balki iqtisodiy jihatdan samarali va o'z-o'zini ta'minlovchi kulolchilik tizimining shakllanganligini ham ko'rsatadi [39, 31-44 b].

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

XX asrning 30-yillarida shimoliy-sharqiy Eronning Gorgan vodiysida joylashgan Tureng va Shaxtepa manzilgohlari, shuningdek Damg'on yaqinidagi Hissor qishloqlarida monoxrom – ya'ni bir xil rangdagi kulolchilik buyumlari (ba'zan "kulrang-qora" yoki "to'q qora" deb tavsiflanadi) aniqlangan. Ushbu sopol buyumlar miloddan avvalgi III–II ming yilliklarga mansub deb baholanadi. Arxeologik tadqiqotlar jarayonida bu turdagi kulrang sopollar alohida ilmiy ahamiyat kasb etib, ularning geografik tarqalishi, madaniy o'ziga xosligi va ehtimoliy etnik mansubligi borasida turli nazariy qarashlar shakllangan.

Ayrim tadqiqotchilar mazkur kulolchilik an'anasining paydo bo'lishini hind-yevropa xalqlari, xususan hinderon qabilalarining ushbu hududlarga kirib kelish jarayonlari bilan bog'lashgan. Ularning fikricha, kulolchilik mahsulotlarining tarqalish geografiyasi keyinchalik hinderon xalqlari istiqomat qilgan hududlar bilan mos tushadi. Biroq mavjud arxeologik dalillar bu munosabatni to'liq tasdiqlamaydi. Shu sababli mazkur masala uzoq yillar davomida arxeologiya va etnogenez sohasida bahsli mavzulardan biri bo'lib kelmoqda. E. A. Grantovski bu masalaga tanqidiy yondashgan. Uning fikricha, sopol buyumlarning tashqi xususiyatlari – rangi, shakli yoki sayqallanganligi ularni yaratgan xalqning tili yoki etnik mansubligini bevosita belgilab bera olmaydi. Masalan, miloddan avvalgi III–II ming yilliklarda Shimoliy Eron (Gorgan va Hissor), Turkmaniston janubi (Namozgoh, Anov), shuningdek Xorazm va Afg'oniston hududlarida keng tarqalgan kulrang sopollar asosida ariy xalqlarining bu yerlarga kirib kelganini isbotlash ilmiy jihatdan asosli emas. Grantovskiying ta'kidlashicha, bunday madaniy o'zgarishlar ko'pincha etnik migratsiya natijasi emas, balki turli xalqlar o'rtasidagi hunarmandchilik tajribalari va madaniy ta'sirlar oqibatida yuzaga kelgan. Kulrang sopol buyumlar, odatda, silliq yuzali, mustahkam xomashyodan yasalgan, bezaksiz yoki soddaligi bilan ajralib turuvchi shakllarga ega bo'lgan. Ayrim tadqiqotchilar bu turdagi buyumlarni hinderon (ariy) xalqlarga tegishli deb hisoblasalar-da, Grantovski bu fikrni tanqid qiladi. U bunday da'volar lingvistik yoki madaniy manbalarga emas, balki taxminiy gipotezalarga tayangan holda ilgari surilayotganini ta'kidlaydi. Shunday qilib, kulrang sopollarni "oriy madaniyati"ning asosiy belgisi sifatida talqin etish ilmiy nuqtai nazardan asossizdir. Ushbu kulolchilik an'anasi, avvalo, madaniy almashinuv va hunarmandchilik texnologiyalarining tarqalish jarayonini aks ettiradi, biroq u

xalqlarning etnik yoki til mansubligini bevosita aniqlovchi omil bo'la olmaydi[5, 7-47 b].

Milodiy I ming yillikning birinchi yarmiga oid Shimoli-g'arbiy Qora dengiz bo'yi hududlarida topilgan bo'zrang sopol buyumlarni chuqur o'rganish ularni xronologik va etno-madaniy mezonlarga ko'ra bir necha guruhlariga ajratish imkonini bergan. Tadqiqotchilar bu buyumlarni quyidagi uch asosiy toifaga bo'ladilar:

1. Tira va Olviyadagi antiq kulol ustaxonalari mahsulotlari;
2. Mazkur shaharlarga tutash qishloq hududlarda yashagan kechki sarmat va skif aholisi tomonidan ishlab chiqarilgan bo'zrang sopol buyumlar;
3. Chernyaxov madaniyatiga mansub kulolchilik mahsulotlari, ya'ni Chernyaxov kulollari tomonidan tayyorlangan kulrang keramika.

Birinchi ikki guruhga mansub sopol majmualar milodiy I asrning birinchi choragiga taalluqli bo'lib, uchinchi guruh esa ushbu ming yillikning ikkinchi choragiga oid deb sanaladi. Ikkinchi guruh dastlab Olviya yaqinidagi Kozirka qal'asidan topilgan materiallar asosida ajratib ko'rsatilgan. Mazkur qal'a birinchi ming yillikning birinchi yarmiga oid qatlamlarga ega bo'lib, undagi stratigrafik ma'lumotlar ushbu turdagi sopol buyumlarning rivojlanish dinamikasini aniqlash imkonini beradi.

Sharqiy Yevropa qishloq manzilgohlarida topilgan bo'zrang sopol buyumlar mahalliy kulolchilik an'analari bilan sezilarli darajada farq qiladi. Ular Rim davriga xos yangi tipdagi kulolchilik madaniyat shaklini ifodalaydi. Mazkur kulolchilik mahsulotlari bir tomondan antiq shaharlarning madaniy, iqtisodiy va texnologik ta'sirini o'zida mujassam etgan bo'lsa, boshqa tomondan, ularning shakllanishi keyingi rivojlanishi, asosan, ushbu hududlarga ko'chib kelgan aholining hunarmandchilik tajribalari, texnologik bilimlari va an'anaviy ishlab chiqarish usullari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan [7, 8-18 b].

Markaziy Osiyoda qadimiy bo'zrang sopol an'anasining kelib chiqishi va o'rganilishi. Markaziy Osiyoda bo'zrang yoki kulrang tusli sopol buyumlar neolit davridan boshlab tarqala boshlagan. Arxeologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday sopollar dastlab Janubiy Turkmaniston va Eronning shimoli-sharqiy qismida jez davri madaniyatlari doirasida paydo bo'lgan. Keyinchalik ular temir va antik davrlarga kelib yanada rivojlangan va keng tarqalgan [4, 173-198].

Bo'zrang sopollarning rivojlanishi va tarqalishi. Bo'zrang sopol idishlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi qator bosqichlarga bo'linadi:

Neolit va eneolit davrlari. Iroqning shimoli-g'arbiy qismidagi Halaf madaniyati bilan bog'liq holda kulrang sopollar paydo bo'lgan. Shimoliy Turkmaniston va Eron madaniyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan Qoradepe va Namozgoh II davrida ham qora-kulrang sayqallangan sopollar keng tarqalgan [18, 30]. V.I.Sarianidining fikriga ko'ra, bunga sabab shimoli-sharqiy Eron va janubi-g'arbiy Turkmaniston madaniyati ta'sirining kuchayishi bilan izohlanadi [26, 91-92]. V.M.Massonning fikricha, taxminan bunday texnologiya birinchi marta neolit davrida Kichik Osiyoning janubi-g'arbiy qismida paydo bo'lgan va Kavkazorti Kur-Araks madaniyati sohiblari orqali sharqqa tarqalgan bo'lishi mumkin [16, 237].

Jez davri. Turkmanistonning janubi-gʻarbiy qismida kulrang sopol mahsulotlari asosiy turga aylangan. Masalan, Namozgoh III-V davrlarida kulrang sopollar 95% ni tashkil qilgan [31, 115-118]. Qora-kulrang kulolchilik mahsulotlari qoʻlda yasalgan boʻlishiga qaramay yuqori sifatda tayyorlangan. Bunday sopollarining devorlari qalinligi baʼzi idishlarda 1-1,5 mm ni tashkil etgan [27, 91]. Topilmalar majmuasida bikonik va silindr-konusli qadahlar, konus va yarim sharsimon kosalar, sharsimon tanali, baland boʻyli va uzun joʻmrakli koʻzalar, osib qoʻyish uchun teshikchalari boʻlgan nok shaklidagi idishlar, baland boʻyli chuqur koʻzalar, yarimsharsimon, tugma yoki halqa tutqichli qopqoqlar mavjud [35, 38]. Baqtriyada joylashgan bronza davriga oid Kuchuktepa, Bandixon [9, 9-17], Fargʻona vodiysidagi Chust madaniyati manzilgohlaridan ham topilgan [29]. Xuddi shunday kulolchilik buyumlari shimoliy Afgʻoniston va janubiy Oʻzbekiston xududida paydo boʻlgan qadimgi Baqtriya yodgorliklari majmualarida, shuningdek Sopollitepaning quyi qatlamlaridan boʻzrang idishlar topilganini aytish mumkin [2, 94]. Oʻzgan vodiysida bronza davriga oid qabrlar ochib oʻrganilganda sirti pardozi boʻzrang idishlarning mayda boʻlaklari topilgan [1, 257]. Bronza davri yodgorligi Tilla-Buloqdan (Surxondaryo) mil.avv. 2 ming yillik birinchi choragiga doir yupqa devorli boʻzrang sopol idish qoldiqlari aniqlangan [12, 140]. Yuqorida taʼkidlab oʻtganimizdek, Toshkent viloyati Ohangaron daryosining oʻng qirgʻogʻidagi Tuyaboʻgʻiz suv ombori hududida oʻtkazilgan qidiruv ishlari natijasida bronza davriga oid boʻzrang sopol idishlar aniqlangan [8, 44]. Bronza davri Chust madaniyatiga oid kulolchilik buyumlari qoʻlda yasalgan. Koʻpincha mato qolipdan foydalanilgan, charxda yasalgan sopol qoldiqlari juda kam uchraydi. Idishlarning katta qismi (73%) qizgʻish boʻlib, sirtida pishirish jarayonida hosil boʻlgan och jigarrang va qora dogʻlar mavjud. Madaniyatga tegishli sopol majmuasining ikkinchi yirik guruhini boʻzrangli oshxona idishlari (18%) tashkil etadi. Idishlar geometrik naqshlar bilan bezatilgan. Koʻpincha tanasining yuqori qismida uchburchaklar, romblar, zigzaklar, narvonlar, toʻrlar, “kapalaklar”, “archalar”, echkilar tasvirlangan, shuningdek odam tasviri tushirilgan idishlar mavjud [27, 121].

Temir davri. Markaziy Osiyoning Fargʻona vodiysi, Chust madaniyati, Baqtriya va Toxariston hududlarida boʻzrang sopollar antik davrga oʻtish jarayonida yanada keng tarqalgan. Fargʻona vodiysining antik va ilk oʻrta asrlarga tegishli sopol majmualari orasida ham boʻz rangli (kulrang) sopol idishlar mavjud [13, 23-129]. S.B.Lunina Markaziy Osiyoda boʻz rang sopol idishlar tayyorlash anʼanasining kelib chiqish davrini milodning birinchi yuz yilliklariga taaluqli deb hisoblaydi [14, 291]. Sharqiy Turkistonda olib borilgan arxeologik tadqiqotlardan maʼlumki, Markaziy Osiyo hunarmandchiligi Sharqiy Turkiston madaniyatiga ham taʼsir qilgan. Tyanshanbeylu, Vupu va Yanbulak qabristonlaridan topilgan sopollar Chust madaniyati bilan oʻxshashlikka ega boʻlib, ularda ham qora yoki kulrang sopol buyumlar uchraydi. Xitoy tadqiqotchilarining radiokarbon tahlillar asosida bu madaniyatlarning miloddan avvalgi 1750—1300 yillarga tegishli ekanini aniqlashgan [27, 37]. Bu esa Markaziy Osiyoning sharqqa boʻlgan madaniy taʼsirni tasdiqlaydi.

Antik davrda bo‘zrang sopollarning kengayishi. Antik davrda Markaziy Osiyo shaharlari va madaniy markazlarida bo‘zrang sopollarning keng tarqalganini arxeologik topilmalar tasdiqlaydi. Boshqa madaniyatlar bilan aloqalar natijasida, bu sopol buyumlar yunon-baqtriya va kushon an‘analari bilan aralashib ketgan. Bu sopol buyumlar hunarmandchilikning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida o‘ziga xos rivoj yo‘lini bosib o‘tgan. Miloddan avvalgi II asrdan boshlab, ular Baqtriya va Toxariston hududlarida keng tarqalgan. Yunon kulolchilik an‘analaridan ta’sirlangan bo‘zrang sopollar Afrosiyobda miloddan avvalgi III—I asrlarga tegishli qatlamlardan ham topilgan [11, 35].

Qarshi Kichik magistral kanali qurilishi munosabati bilan o‘tkazilgan tadqiqotlarda mil.avv. II-I asrlarga tegishli (antik davr) zuvalasi zich yasalgan, devor qalinligi 1-1,5 sm bo‘zrang ko‘zaning bo‘lagi aniqlanib, sirti kulrang-yashil, ichi esa to‘q kulrang bo‘lib pishgan [10, 120].

Buxoro vohasidagi Poykend yodgorligi arkida olib borilgan so‘ngi qazishmalarda quyi qatlamlardan yunon davri – mil.avv. III asr o‘rtalarida bo‘zrang idishlar paydo bo‘lgani kuzatildi. Sopol majmualari qatorida jigarang-qizil angob bilan qoplangan bo‘zrang piyola, gardishi tashqariga qayrilgan ko‘za va boshqa idishlar aniqlangan [22, 108]. Xolnizoztepa yodgorligida yunon-baqtriya davri so‘ngi asrida shakllangan qabrlardan yodgorlikni davrlashtirishda ahamiyat kasb etadigan bo‘zrang kosa, jom, qadah alohida qiziqish uyg‘otadi [19, 103]. Yunon-baqtriya shaharlarida bo‘zrang sopol idishlar umumiy qiymatning 15 %ni tashkil etgan [36, 145]. Antik davr Oyoqchi voxasidan (Qashqadaryo) kuygan tuproqdan yasalgan, to‘q kulrang angobli bo‘zrang sopol, xaykalcha bo‘lagi aniqlangan [21, 124]. Sh.R.Pidaev tomonidan Mirzaqultepa manzilgohida olib borilgan keng qamrovli arxeologik tadqiqotlar Baqtriyaning ilk kushon davri tarixi va madaniyatiga oid juda boy arxeologik materiallarni taqdim etgan. Mirzaqultepa Termiz shahridan 13 km shimoli-sharqda joylashgan. Yodgorlikda ko‘plab moddiy-madaniyat buyumlari topilgan, ular orasida kulolchilik maxsulotlari ustunlik qiladi. Texnik xususiyatlariga ko‘ra qo‘lda va charxda yasalgan turlarga bo‘linadi [24, 88]. Qazilgan joydan olingan sopol idishlarning taxminan 12% bo‘zrang sopol buyumlar tashkil etadi [23, 39-40]. Antik davrda bo‘zrang sopol buyumlar Baqtriyada ancha keng tarqalgan. Ular kushon davrining deyarli barcha yodgorliklarining dastlabki qatlamlarida uchraydi. G.A.Pugachenkova Dalvarzintepa kulolchiligini ko‘rib chiqib, bo‘zrang sopol buyumlar faqat shimoliy hududlar (Kobodiyon, Holchayon, Kultepa, Dalvarzintepa) uchun xos ekanligini va bu turdagi mahsulotlar kulolchilikning mahalliy xususiyatlaridan biri ekanligini qayd etadi [25, 194-195]. Muallifning ta’kidlashicha, bo‘zrang sopol buyumlar Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘idagi axoli manzilgoxlari uchun xos bo‘lmagan, topilmalar majmuasida bo‘zrang sopol qoldiqlari kam uchraydi [25, 195]. B.A.Turg‘unov Ayritom kulolchiligini o‘rganar ekan bo‘zrang sopol buyumlar Ayritomda er.avv. II – I asrlarda paydo bo‘lganini qayd etadi. Kushonlar davrida (er.avv. I asrning ikkinchi yarmi – milodiy II asrning birinchi yarmi) uchramasligini aytib o‘tadi [30, 15-16].

Ilk o‘rta asrlarda bo‘zrang sopollarning davomiyligi. O‘rta asrlarda bo‘zrang sopol mahsulotlari rivojlanishda davom etgan. Sh.R. Pidaev olib borgan

tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, kushonlar davridagi Amudaryo vodiysida bo'zrang sopollar keng tarqalgan. Shimoliy Baqtriyaning ko'plab manzilgohlarida, jumladan, Mirzaqultepa va Ko'hna Termiz yodgorliklarida yunon-baqtriya davriga oid bo'zrang sopollar aniqlangan. Navoiy viloyatidagi Sarmishtepa I yodgorligida ham ilk o'rta asrlarga tegishli bo'zrang idishlar topilgan. Ularning sirtiga taroshlash, o'yish va chizma usullarida bezak berilgan. Bu hunarmandchilik usuli ushbu davrda kulolchilik san'ati an'anaviy ravishda davom etganini ko'rsatadi [33, 229]. Ustrushonaning Eski Xovos yodgorligidagi qazishmalarda A.Gritsina Kushonlar davri (er.avv. I – milodiy IV asrlar) sopol majmuasida charxda yasalgan sifatli – yupqa va jarangdor bo'zrang qadax, kosalar (piyola), tog'oralar soni ortib borganini qayd etadi [6, 81].

O'rta asrlar davri bo'zrang sopol majmualarining o'r ganilishi. Mintaqamizda kulolchilik qadimdan rivojlangan hunarmandchilik turi bo'lib, u asrlar davomida yangi uslublar, texnologiyalar va bezaklash an'analari bilan boyitilib borilgan. Bo'zrang sopol buyumlar ushbu hududdagi eng muhim sopol mahsulotlaridan biri bo'lib, ular metall va shisha idishlarga taqlid qilib yasalgan, bosma va o'yma naqshlar bilan bezatilgan hamda nafis ko'rinishi bilan ajralib turgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida Axsikent, O'zgand, Quva, Andijon, Jizzax, Afrosiyob, Kofirqal'a, Termiz, Xorazm, Marv, Buxoro, Shosh-Iloq, Mingo'rik va boshqa qadimiy markazlarda ko'plab bo'zrang sopol buyumlar topilgan. Bo'zrang sopol buyumlarning seroblighi, ularning keng hududga tarqalgani hamda ishlab chiqarish uslubining yaxlitligi ushbu majmuaning Markaziy Osiyoda yuksak rivojlanganligidan dalolat beradi. Arxeologik topilmalar ko'rsatadiki, bu turdagi sopol idishlar nafaqat mahalliy iste'mol uchun, balki savdo aloqalari orqali boshqa mintaqalarga ham eksport qilingan.

IX asrda Marv, Buxoro, Afrosiyob va Xorazmda kulolchilik an'anaviy ravishda rivojlangan bo'lib, bu davrda oddiy va sirlangan sopol buyumlar ishlab chiqarilgan. Bu davrda bo'zrang sopol buyumlar esa metall idishlarga taqlid qilinib, bosma va o'yma naqshlar bilan bezatilgan holda tayyorlana boshlangan.

X-XII asrlarga kelib, bunday kulolchilik idishlarini tayyorlash yanada rivojlanib, maxsus kulolchilik ustaxonalari paydo bo'lgan. XI asrning ikkinchi yarmida Samarqand kulolchilik maktabining an'alarida keskin o'zgarish yuz berishni boshlaydi. Yangi usullar joriy etilib, texnologik jarayonlar takomillashtiriladi va sopol buyumlar shakli va bezaklarida o'zgarish boshlanadi. Bunga sabab savdo tarmog'ining yo'nalishlari o'zgarib asosiy yo'nalish Bag'dodga emas, O'rta Osiyo mintaqalariga qaratiladi. Bu mahalliy ishlab chiqarishning shakli va bezaklariga ta'sir etgan. XI asr so'ngida kulolchilik texnikasini takomillashtirish va mehnat unumdorligini oshirish hisobiga sirlanmagan kulolchilik buyumlar tayyorlashda sifat jihatdan o'sish kuzatiladi. Kumush idishlarga taqlid qilib kulollik charxida yasalgan yupqa devorli bo'zrang sopol buyumlar paydo bo'ladi. Mahsus sopol pishirish texnologiyasi orqali metall idishlarning sopol nus'halarini yaratishga to'liq erishilgan. Yaqin va O'rta sharqning ko'plab hududlarida bir xil uslubdagi bosma bezakli bo'zrang sopol mahsulotlarining bir vaqtda paydo bo'lishi bundan dalolat beradi [28, 18].

Afrosiyobdan topilgan bo'zrang idishlar XI-XIII asrlarga tegishli bo'lib, ular murakkab bezaklarga ega. Samarqandning Shohi-Zinda ansambli yonida XII-XIII asr kulolchilik ustaxonalari aniqlangan [28, 82-85]. Samarqand maktabida yangi texnologik yutuqlar paydo bo'lib, bu yerda tayyorlangan buyumlar nafaqat mahalliy bozorda, balki xalqaro savdoda ham keng tarqalgan. L.F. Sokolovskayaning fikricha, Samarqand kulollari tomonidan yasalgan bo'z rangli sopol idishlarning bosma va qolipli shakllari XII asr ikkinchi yarmi – XIII asr boshidagi Marv bo'zrang topilmalarining shakliga o'xshaydi [20, 153-205]. Afrosiyobning bo'zrang idishlarning katta guruhi juda murakkab bezakli ko'zalar bilan ifodalanadi. Ular tarkibida ma'lum bir qo'shimchalari bo'lgan mayda g'ovaksimon odatiy kulolchilikda foydalanadigan tuproqlardan tayyorlangan. Ko'zalardagi boy bezaklar kamida uch xil usulda yaratilgan. Naqshlar tarkibiy jihatdan asosan o'simlik elementlaridan iborat bo'lgan [28, 104].

Shuningdek rivojlangan o'rta asrlar yirik shaharlardan bo'lgan Axsikent yodgorligidan topilgan kulolchilik buyumlari, xususan, bo'zrang idishlar va ularning turlari shaharning rivojlangan hunarmandchilik markazi ekanini ko'rsatadi. IX-XIII asr boshlariga tegishli dasturxon, oshxona, xo'jalik va maxsus maqsadlar uchun mo'ljallangan idishlar Farg'ona vodiysidagi boshqa markazlar bilan o'xshashlikka ega bo'lgan. Bu hududlar o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalar mavjudligini anglatadi. Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, bu davrlarda sopol ishlab chiqarishda yangi texnologik yutuqlar qo'llanilgan bo'lib, idishlar turli shakl va bezaklarga ega bo'lgan. Bo'zrang sopol buyumlar maishiy hayotda keng qo'llanilgan va o'zining funksional maqsadiga qarab turli xildagi idishlar, xumlar, qadahlar, qopqoqlar va sferokonussimon idishlar tayyorlangan. IX-XI asrlarda bo'zrang sopol buyumlar kamyob bo'lsa-da, ularning turlari aniq belgilangan. Bu davrga oid topilgan idishlar asosan oshxona va xo'jalik idishlar sifatida qo'llanilgan. Ularning asosiy shakllari, jumladan, tor bo'yinli ko'zalar – ularning dastalari vertikal joylashtirilgan bo'lib, ba'zi hollarda tashqi tomoni barmoq bosilgan naqshlar bilan bezatilgan. Bo'yni tashqariga qayrilgan ko'zalar – bu turdagi idishlarda gorizontal dastalar mavjud bo'lib, ular ham barmoq bosilgan bezaklar bilan boyitilgan.

IX asrda Xorazmda sug'orish va suv saqlash uchun maxsus idishlar – bo'zrangli digirlar paydo bo'lgan. Bu suv idishlari hajm jihatidan katta bo'lib, uy xo'jaligida muhim ahamiyatga ega bo'lgan [3, 299].

Bu davrda qopqoqlar keng tarqalgan bo'lib, ular ikki xil shaklda yasalgan, masalan, qo'lda yasalgan, disksimon, barmoq bosilgan yoki shtamplangan rozetkali naqshli qopqoqlar. Qolipda tayyorlangan, konussimon yoki yarimshar shaklida bo'lib, markazda chetlari tishsimon qilib bezatilgan tutqichli qopqoqlar. XII-XIV asrlarga kelib, bo'zrang sopol buyumlar texnologik va san'at jihatdan yanada takomillashgan. Bu davrga oid idishlar tozalangan, mayda zich tuproqdan tayyorlangan bo'lib, pishirilganda kulrang tus olgan.

Markaziy Osiyoda bo'zrang sopol mahsulotlari keng ko'lamda IX asrda yuzaga chiqib, XII-XIII asr boshlarida ishlab chiqarishning eng katta rivojiga erishadi. Markaziy Osiyo mo'g'ullar tomonidan bosib olingandan so'ng bo'zrang sopol

buyumlar ishlab chiqarish Xorazmdan boshqa barcha hududlarda to'xtagan [4, 173].

XII-XIV asrlarda Xorazm vohasida bo'zrang sopol buyumlar turli naqshlar bilan bezatilgan:

1. Barmoq bosib chizilgan naqshlar;
2. Geometrik va o'simlik uslubidagi naqshlar;
3. Chizmalar va nayzasimon bezaklar;
4. Bosma va o'yma ornamentlar [3, 302].

IX-XIV asrlarda Xorazmda bo'zrang sopol buyumlar ishlab chiqarish rivojlangan bo'lib, ularning shakli va bezaklash usullari davriy o'zgarishlarni boshdan kechirgan. IX-XI asrlarda bo'zrang sopollar kam uchragan bo'lsa, XII-XIV asrlarga kelib, bu mahsulotlar amaliy san'at va texnologik jihatdan yuksak darajada takomillashgan [3, 302-314].

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bo'zrang sopol buyumlar — bu oddiy rang o'zgarish hodisasi emas, balki yuqori darajadagi texnologik nazorat mahsuli bo'lib, u qadimiy kulolchilikning rivojlangan bosqichini ifodalaydi. Pishirish jarayonida reduksiya muhiti, harorat nazorati (700–950 °C) va hom ashyo tarkibining mineralogik xususiyatlari sopol buyumlarning mustahkamligi hamda estetik ko'rinishini ta'minlagan. Bo'zrang sopollar Markaziy Osiyo madaniyatida hunarmandchilik ixtisoslashuvi, iqtisodiy aloqalar va madaniy integratsiya jarayonlarini aks ettiradi. Ularning keng tarqalishi, xususan, Chust, Baqtriya, Afrosiyob, Marv, Axsikent va Xorazm yodgorliklarida topilishi bu an'ananing mintaqaviy ishlab chiqarish tizimi shakllanganidan dalolat beradi. IX–XIII asrlarga kelib, bo'zrang sopollar kulolchilik texnologiyasi va badiiy did uyg'unligining eng yuqori cho'qqisiga erishadi: metall idishlarga o'xshash shakllar, bosma va o'yma bezaklar, silliqlangan sirt va ranglarning o'zaro farqlanishi Markaziy Osiyo kulollarining texnik mahoratini ifodalaydi. Shu tariqa, maqolada bo'zrang sopol buyumlarining kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari va ularning mintaqaviy madaniyatdagi o'rni kompleks arxeologik, texnologik va madaniy tahlil asosida ilmiy asoslangan tarzda yoritishga harakat qilindi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Аманбаева Б. Э., Рогожинский А. Е., Мэрфи Д. Могильник Шагым – новый памятник эпохи бронзы восточной Ферганы (Кыргызстан) // Археологические исследования в Узбекистане. – Т. 5. – Ташкент, 2006.
2. Аскарлов А. А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. – Ташкент, 1977.
3. Вактурская Н. Н. Хронологическая классификация средневековой керамики Хорезма (IX–XVII вв.) // Керамика Хорезма. / Тр. ХАЭЭ. Т. IV. – М., 1959.
4. Гражданкина С. Н. К истории керамического производства в Средней Азии // ИМКУ. – № 5. – Ташкент: Фан, 1964.

5. Грантовский Э. А. «Серая керамика», «расписная керамика» и индоиранцы // NARTAMONGÆ. – Владикавказ: Центр археологических исследований им. А. Б. Джанаева, 2013. – Т. 10, № 1–2.
6. Грицина А. Гончарная продукция городища Эски Хавас в рамках развития традиционной керамики на территории Узбекистана (VI в. до н. э. – VIII в. н. э.) // ИМКУ. – № 43 (III). – Ташкент: Фан, 2022.
7. Гудкова А. В., Малюкевич А. Е. Сероглиняная кружальная керамика поселений на Днестровском лимане (первая четверть I тыс. н. э.) // Stratum plus. – 1999. – № 4.
8. Дуке Х. Новая стоянка эпохи бронзы в Ташкентской области // ИМКУ. – № 15. – Ташкент: Фан, 1979.
9. Дуке Х. Туябугузские поселения бургулюкской культуры. – Ташкент, 1982.
10. Исамиддинов М.Х., Сулейманов Р.Х. Результаты археологического обследования трассы нижекаршинского магистрального канала.// ИМКУ. №22. – Ташкент. 1988. “ФАН”.
11. Кабанов С. К. Стратиграфический раскоп в северной части городища Афрасиаб // Афрасиаб. Сборник статей. Вып. II. – Ташкент, 1973.
12. Каниут К., Тонфер М., Ильясов Дж. Я., Шайдуллаев Ш. Б. Раскопки поселения эпохи бронзы Тилля-Булак в 2007 г. // Археологические исследования в Узбекистане. – № 6. – Ташкент: Фан, 2009.
13. Литвинский Б. А. Керамика из могильников Западной Ферганы (первое тысячелетие н. э.) – М., 1973.
14. Лунина С. Б. Гончарное производство в Мерве в XI–XIII вв. // Труды ЮТАКЭ. – Т. XI. – Ашхабад, 1962.
15. Масимов И. С. Инновации в эпоху бронзы в низовьях Мургаба // Типологический и культурный прогресс в раннеземледельческую эпоху. – Ашхабад, 1987.
16. Массон В. М. Средняя Азия и Древний Восток. – М.–Л., 1964.
17. Массон В. М. Средняя Азия и Иран в III тысячелетии до н. э. // КСИА. – Вып. 93. – М., 1963.
18. Мерперт Н. Я., Мунчаев Р. М. Погребальный обряд племен халавской культуры (Месопотамия) // Археология Старого и Нового Света. – М., 1982.
19. Мухитдинов Х. Ю. Могильник античного времени Холниёзтепа // Археологические исследования в Узбекистане. – Самарканд, 2001.
20. Немцева Н. Б. Стратиграфия южной окраины городища Афрасиаб // Афрасиаб. Вып. 1. – Ташкент, 1969.
21. Омельченко А. В. Археолого-топографическое обследование памятников эпохи античности в Аякчинском оазисе (Китабский район Кашкадарьинской области) // Археологические исследования в Узбекистане. – № 3. – Ташкент, 2003.
22. Омельченко А. В., Мокробородов В. В. Керамические комплексы эллинистического времени из Пайкенда: новые данные // ИМКУ. – № 40. – Самарканд, 2018 (19).

23. Пидаев Ш. Р. Поселения кушанского времени Северной Бактрии. – Ташкент, 1978.
24. Пидаев Ш. Р. Сероглинянная керамика Мирзакултепа // ИМКУ. – Вып. 25. – Ташкент: Фан, 1991.
25. Пугаченкова Г. А. Новое в изучении Дальверзин-тепе // СА. – М., 1971. – № 4.
26. Сарияниди В. И. Материальная культура Южного Туркменистана в период ранней бронзы // Первобытный Туркменистан. Под ред. В. М. Массона, Б. Атагарриева. – Ашхабад, 1976.
27. Сверчков М. Л. Тохары – древние индоевропейцы в Центральной Азии. – Ташкент: SMI ASIA, 2011.
28. Соколовская Ф. Л. Археология Центральной Азии: Архивные материалы. Т. 1. – Самарканд, 2015.
29. Спришевский В.И. Чустское поселение эпохи бронзы (из раскопок 1954 г.) - В сб.: КСИИМК, вып. 69, 1957.
30. Тургунов Б. А. Айртам. Автореф. дисс. ... к. и. н. – Ташкент, 1974.
31. Хлопин И. Н. Могильник Пархай II (некоторые итоги исследования) // СА. – 1989. – № 3.
32. Хлопин И. Н., Хлопина Л. И. Могильник эпохи ранней бронзы Пархай II в Туркмении // СА. – 1980. – № 1.
33. Хужаназаров М., Грицина А., Рахимов К. Раскопки поселения Сармиштепе I // Археологические исследования в Узбекистане. – Т. 5. – Ташкент, 2006.
34. Шишкина Г. В. Керамика конца IV–II вв. до н. э. (Афрасиаб II) // Афрасиаб. Сборник статей. Вып. III. – Ташкент, 1974.
35. Arne T. J. Excavations at Shah Tepe, Iran. Reports from the Scientific Expedition to the North-Western Provinces of China under the Leadership of Dr. Sven Hedin. The Sino-Swedish Expedition. Publication 27. – Stockholm, 1945.
36. Cfrdin J. C. Les ceramiques. Fouilles d’Ai Khanoum // MDAFA. – Т. 21. – Paris, 1973.
37. Gamba M.; Ruta Serafini A. La ceramica grigia dallo scavo dell’area ex Pilsen a Padova // Archeologia Veneta. – 1984. – Vol. VII. (ISSN 0392-9876).
38. Hiebert F. T., Dyson R. H. Prehistoric Nishapur and the Frontier between Central Asia and Iran // Iranica Antiqua. – Vol. XXXVII. – 2002.
39. Maritan L., Mazzoli C., Nodari L., Russo U. Second Iron Age grey pottery from Este (north-eastern Italy): study of provenance and technology. Applied Clay Science. – 2005. – Vol. 29, No. 1–2. DOI: 10.1016/j.clay.2004.09.003.

Артиков У. Л.

Старший научный сотрудник отдела «Археология Шёлкового пути»

Национальный археологический центр

mirimonartikov@gmail.com

ПРОИСХОЖДЕНИЕ И РАЗВИТИЕ СЕРОГЛИНЯНОЙ КЕРАМИКИ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются происхождение, технологические особенности и этапы исторического развития сероглиняной керамики на основе археологических и физико-химических исследований. Проведено сравнительное изучение серой керамики, обнаруженной на территориях Ирана, Туркменистана, Ферганской долины, Хорезма и других регионов. Раскрыт механизм образования серого окрашивания, возникающего в результате обжига глины, содержащей окислы железа, в условиях восстановления. Сероглиняная керамика интерпретируется как высокотехнологичный продукт, сформировавшийся в русле древних гончарных традиций и восходящий к подражанию металлическим сосудам. В статье научно обоснованно проанализированы поэтапное развитие данной керамики от неолита до средневековья, её региональное распространение и роль в системе культурных взаимосвязей.

Ключевые слова: Сероглиняная керамика, технология обжига, восстановительная среда, минералогический состав, гончарные традиции, археология Средней Азии, Чустская культура, Бактрия, Ферганская долина, Афрасиаб, хорезмское гончарство.

Artikov U. L.

Senior researcher at the department of «Silk Road Archaeology»

National Archaeological Center

mirimonartikov@gmail.com

THE ORIGINS AND DEVELOPMENT OF GREY CLAY CERAMICS

ABSTRACT

This article examines the origin, technological characteristics, and historical development of grey-clay ceramics through archaeological and physicochemical analyses. The study provides a comparative assessment of grey pottery assemblages unearthed in Iran, Turkmenistan, the Fergana Valley, Khorezm, and other regions of Central Asia. Particular attention is given to the mechanism of grey coloration resulting from the firing of clay containing iron oxides under reducing conditions. Grey-clay ceramics are interpreted as high-technological craft products that emerged within ancient pottery traditions, often inspired by the forms of metal vessels. The paper presents a scientifically grounded analysis of the gradual evolution of these wares from the Neolithic to the Medieval periods, emphasizing their regional distribution and significance within the broader context of cultural exchange and technological interaction.

Keywords: Grey-clay pottery, firing technology, reducing atmosphere, mineralogical composition, pottery tradition, Central Asian archaeology, Chust culture, Bactria, Fergana Valley, Afrasiab, Khorezm pottery.